| |
|---|
| O`quv dasturi Termiz davlat universitetining O`quv-metodik Kengashining 2024-yil 30 - 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan. |
| **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>U.Imomova – TerDu, Roman-german tillari kafedrasi mudiri, Phd |
| **Taqrizchilar:**<br>**Sh. A. Kenjaboyev** – Samarqand davlat universiteti meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filiali, Tillar kafedrasi mudiri. |



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
**O`quv ishlari bo`yicha prorektor**
**R.N. To`rayev**
**2024-yil "30" 08**

**Ro`yxatga olindi**
**№ MD-70230101-2.0**
**"30" 08 2024 yil**

**LINGVISTIK TAHLIL METODLARI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – San`at va gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 230000 – Tillar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 70230101 - Lingvistika: nemis tili |

Termiz – 2024

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| LTMM128 | | 2024-2025 | 2 | 4/4 | |
| **Fan/modul turi** | | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | | O'zbek | | 4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Lingvistik tahlil metodlari | | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – magistrantlarga lingvistik tahlil metodlari haqida zaruriy tushunchalar hamda bu metodlarning taraqqiyot bosqichlari, yangi metodlarning yaratilishi va qo'llanish doirasi bo'yicha chuqur bilim berishdir.

**Fanning vazifasi** – lingvistik tahlil metodlarining yaratilishi, bu metodlarni yaratilishiga katta hissa qo'shgan olimlarning lingvistik ta'limotlari, erishgan yutuqlari, lingvistik tahlil metodlarining turlari, ushbu metodlarining rivojlanish dinamikasi, ularni qiyoslab o'rganish va zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilayotgan metodlar yuzasidan ilmiy-amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tilshunoslikda tadqiqot metodlari haqida tushuncha. Metod, metodika va metodologiya tushunchalari tavsifi. (2 soat)**

Lingvistik tahlil metodlari haqida umumiy tushuncha. Ilmiy tahlil vositalari: kuzatish, eksperiment, induksiya, deduksiya, analiz, sintez. Terminologik apparat: metod, metodologiya, metodika. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi. Tadqiqot metodlarining xususiyatlari. Til va uning taraqqiyotini o'rganishda tahlil metodlarining o'rni. Turli til sathlariga xos umumiy va xususiy metodlar. Tahlil metodlari turli lingvistik maktablar (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, psixologizm, sotsiolingvistika, strukturalizm)ning mahsuli sifatida.

**2-mavzu. Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. (2 soat)**

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Sanskrit tilini boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishda ushbu metodning tutgan o'rni. O'tmishda qardosh bo'lgan tillarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va umumlashtirishda qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanish usullari. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari va eng yirik namoyondalari Rasmus Rask (1791-1867), Frans Bopp (1791-1867), Yakob Grimm (1787-1863), A.X. Vostokov (1781-1864), Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) va boshqalar. Qardosh tillardagi faktlarni bir-biriga sistemali ravishda qiyoslash, bir necha tillar uchun umumiy bo'lgan til elementlarini, so'z va uning shakllarini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da qiyosiy-tarixiy metodning ahamiyati.



**3-mavzu. Tipologik va chog'ishtirma metodlarning yaratilishi va ularning qo'llanish prinsiplari. (2 soat)**

Lingvistik tipologiyaning asosiy vazifalari. Tipologik metod haqida tushuncha. Tipologik metodning yaratilishi. Lingvistikada chog'ishtirma metod. Chog'ishtirma metodning universalligi. Ikki yoki undan ortiq tillarning strukturasi va tarkibiy elementlarining bir-biriga o'xshash va noo'xshash tomonlarini chog'ishtirma metod orqali o'rganish. Chog'ishtirma metodning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti. Chog'ishtirma metod vakillari haqida ma'lumot. Chog'ishtirma metodning xorijiy tillarni o'rganishda samaradorligi. Ushbu metodning tarjima nazariyasi va amaliyotida qo'llanilishi.

**4-mavzu. Ferdinand de Sossyur lingvistik nazariyasi va struktural metodlarning yaratilishi. (2 soat)**

Struktural metodlarning yuzaga kelishida Ferdinand de Sossyur g'oyalarining ahamiyati. Tilning ichki qurilishini, til sistemasini tashkil etgan elementlar orasidagi munosabatlarni, oppozitsiyalarini o'rganishda struktural metodning o'rni. Struktural oqimning paydo bo'lishi, tilni ilmiy o'rganishga xizmat qiladigan yangi struktural tahlil metodlarining vujudga kelishi. Praga strukturalizm maktabi (V.Matezius, Trnka, R.O. Yakobson, N.S. Trubetskoy va boshq.). Amerika strukturalizm maktabi (F.Bopp, E.Sepir, L.Blumfild, Z.Xerris, N.Chomskiy va boshq.) Amerika strukturalizm maktabi negizida yaratilgan distributiv, bevosita ishtirokchilarga ajratish va transformatsion tahlil metodlari. Kopengagen strukturalizmi va glossematika nazariyasi (L.Elmslev, V.Brendal, G.Uldall, X.Serensen, X.Pedersen va boshq.), London strukturalizm maktabi.

**5-mavzu. Tilshunoslikda deskriptiv, bevosita tashkil etuvchilar va transformatsion metodlarning yaratilishi va qo'llanishi. (2 soat)**

Deskriptiv lingvistika. Deskriptiv metodning yaratilish tarixi. Deskriptiv grammatika. Tilshunoslikda transformatsiya tushunchasi. Transformatsion grammatika nazariyasi. Transformatsion tahlil metodining ta'rifi va tavsifi. Transformatsion tahlil metodining qo'llanilish bosqichlari. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni, ularning tarkibiy qismlarini o'rganuvchi tahlil usuli sifatida. Bu metod vakillari haqida ma'lumot. Deskriptiv, bevosita tashkil etuvchilar va transformatsion metodlarning kamchiliklari.

**6-mavzu. XX-XX1 asrlar tilshunosligining asosiy yo'nalishlari va zamonaviy tahlil metodlari (2 soat)**

Fan taraqqiyoti jarayonida yangidan-yangi metodlarning yuzaga kelishi va ularning amaliyotda qo'llanilishi. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy tahlil metodlari: kognitiv-konseptual tahlil metodlari. Kognitiv tahlil prinsiplari: fanlararolik, antroposentriklik, ko'psathlilik, struktur-funksional butunlik. Lingvokulturologiya. Stereotiplar. Lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishidagi tahlil metodlari. Pragmalingvistika va uning asosiy tamoyillari.

Pragmalingvistika yo'nalishlaridagi tahlil metodlari.Sotsiolingvistika. German Xaken sinergetik metodning asoschisi sifatida. Sinergetik metodning prinsiplari.

**7-mavzu. Til sathlari bo'yicha metodlarning qo'llanilishi (2 soat)**

Til sathlari va lingvistik tahlil metodlari. Tilni fonologik darajada tahlil qilish metodlari: oppozitsion va distributiv metodlar. Tilni leksik-semantik darajada tahlil qilish metodlari: komponent tahlil metodi, semantik maydon metodi, leksik-semantik guruhlash metodi. Tilni morfem va so'z yasalish darajada tahlil qilish metodlari: morfem tahlil, so'z yasalishi tahlili. Tilni morfologik darajada tahlil qilish metodlari. Tilni gap darajasida tahlil qilish metodlari. Uslubiy tahlil metodlari: V. Mateziusning gapni aktual bo'laklarga ajratish nazariyasi.

**8-mavzu. Matn tahlili metodlari. (2 soat)**

Matn tahlili birliklari. Matn tahlili metodlarining maqsadi. Matn tahlili metodlarining tasnifi. Intent-tahlil. Kontent-tahlil. Fonosemantik tahlil. Diskurs-tahlil. Narrativ tahlil. Matnni ekspert baholash. Grafematik tahlil. Morfologik tahlil. Sintaktik tahlil. Semantik tahlil.

**9-mavzu. Tilshunoslikda eksperimental va statistik metodlarning o'rni. (2 soat)**

Eksperiment tushunchasi. Eksperimentning olg'a surilgan taxminlarning haqiqiyligini, maqsadga yo'naltirilganligini tekshirish yoki obyektiv dunyoning qonunlarini aniqlashdagi o'rni. Eksperiment o'tkazishdan oldin amalga oshiriladigan tadbirlar. Tajriba-sinov ishlarining qo'yilishi va bosqichlari. Statistik tahlil nutqda elementlarning qo'llanilishini ko'rsatish usuli sifatida. Tilshunoslikda statistik tahlil metodlarining maqomi. Lingvistik tahlilda statistik metodlarning qo'llanilishi.

## III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Lingvistik tahlil metodlari haqida asosiy tushunchalar. Ularning yaratilish asoslari va fan va til taraqqiyotidagi ahamiyati. (2 soat)

2. Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tamoyillarining o'rni, metodning taraqqiyot bosqichlari va o'rganish masalalari. (2 soat)

3. Tipologik va chog'ishtirma metodlarning umumiy va xususiy tavsifi. Chog'ishtirma metodning yaratilish asoslari va qo'llanilish tamoyillari. (2 soat)

4. Struktural metodlarning yaratilishida Ferdinand de Sossyurning lingvistik ta'limoti va strukturalizm maktablarining tutgan o'rni. (2 soat)

5. Struktural metodlarning yaratilishi va qo'llanilish tamoyillari: deskriptiv, bevosita tashkil etuvchilar va transformatsion metodlar. (2 soat)

6. XX-XXI asrlar tilshunosligining asosiy yo'nalishlari tamoyillari negizida yuzaga kelgan tahlil metodlari va ularning zamonaviy lingvistik tadqiqotlardagi o'rni (2 soat)

7. Lingvistik tahlil metodlarining til sathlari bo'yicha qo'llanilish masalalari. (2 soat)

8. Matnni tahlil qilishda turli yondashuvlar va metodlar. (2 soat)



9. Lingvistik tadqiqotlarda statistik va eksperimental tekshirish usullari va ularning ahamiyati. (2 soat)

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilni fonologik darajada tahlil qilish metodlari.
2. Tilni leksik-semantik darajada tahlil qilish metodlari.
3. Tilni morfem va so'z yasalish darajada tahlil qilish metodlari.
4. Tilni morfologik darajada tahlil qilish metodlari.
5. Tilni gap darajasida tahlil qilish metodlari.
6. Uslubiy tahlil metodlari.
7. Psixolingvistik tahlil metodlari.
8. Sotsiolingvistik tahlil metodlari.
9. Lingvomadaniyatshunoslik tahlil metodlari.
10. Pragmalingvistik tahlil metodlari.
11. Kognitiv tilshunoslik metodlari.
12. Tilshunoslikda sinergetik metodlar.
13. Lingvistik tahlilda kompyuter metodlarining qo'llanilishi.
14. Ilmiy tahlil vositalari: kuzatish, eksperiment, induksiya, deduksiya, analiz, sintez.
15. Terminologik appparat: metod, metodologiya, metodika.
16. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi.
17. Turli til sathlariga xos umumiy va xususiy metodlar.
18. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodlari.
19. Sanskrit tilini boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishda qiyosiy-tipologik metodning tutgan o'rni.
20. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari va eng yirik namoyondalari.
21. Lingvistik tipologiyaning asosiy vazifalari.
22. Tipologik metodning yaratilishi.
23. Lingvistikada chog'ishtirma metod.
24. Chog'ishtirishma metodning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti.
25. Chog'ishtirma metod vakillari.
26. Chog'ishtirma metodning xorijiy tillarni o'rganishda samaradorligi.
27. Chog'ishtirma metodning tarjima nazariyasi va amaliyotida qo'llanilishi.
28. Struktural metodlarning yuzaga kelishida Ferdinand de Sossyur g'oyalarining ahamiyati.
29. Praga strukturalizm maktabi metodlari.
30. Amerika strukturalizm maktabi metodlari.

| | |
|---|---|
| | 31. Lingvistik tadqiqotlarda statistik usullar.<br>32. Lingvistik tadqiqotlarda eksperiment.<br>33. Matn tahlili metodlari.<br>34. Transformatsiya usuli.<br>35. Bevosita tashkil etuvchilar metodi.<br>36. Metodlar va til darajalari.<br>37. Kontent tahlili.<br>38. Assotsiativ tahlil.<br>39. Axborot yig'ish usullari.<br>40. Ijtimoiy so'rovnoma.<br>41. Anketalarni tuzish va so'rovnomalar o'tkazish.<br>42. Tilshunoslikda metod nazariyasining umumiy masalalari.<br><br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha magistrantlar tomonidan portfolio, referatlar tayyorlash va taqdimot qilish, ilmiy maqola va tezislar yozish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalar)**<br>**Magistrant bilishi kerak:**<br>• tilshunoslik fanining dastlabki bosqichlarida tahlil metodlarining yaratilishi, bu metodlarning yaratilishiga katta hissa qo‘shgan olimlarning lingvistik ta'limotlari, erishgan yutuqlari va lingvistik tahlil metodlarining turlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi; **(bilim)**<br>• tarixiy-traditsion va zamonaviy metodlarga tayangan holda fanda shakllangan ilmiy metodlarni o‘zlashtirishi, til faktlarini tahlil qilishda ularni to‘g‘ri qo‘llashni bilishi va ulardan foydalana olishi; **(ko‘nikma)**<br>• lingvistik tahlil metodlarining rivojlanish dinamikasini chuqur tushunishi va tahlil qilishi, ularni qiyoslab o‘rganishi va zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilayotgan metodlarni farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. **(malaka)** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• portfolio tayyorlash;<br>• guruhli muzokaralar;<br>• jamoaviy loyihalar;<br>• juftliklarda topshiriqlarni bajarish;<br>• yakka holda ma'lum mavzu bo‘yicha prezentatsiyalar qilish;<br>• davra suhbatlari o‘tkazish, diskussiya, klaster, bahs-munozara;<br>• refleksiv usullar (tahlil, qiyoslash, sintez, baholash). |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan metodlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy |



| | |
|---|---|
| | nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Minniqulov I. Lingvistik tahlil metodlari. Toshkent. 2021, – 262 b.<br>2.Tarlanov Z.K. Metodi lingvisticheskogo analiza. – M.: Yurayt, 2019. – 236 s.<br>3.Umarxo‘jaev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2010. – 85 b.<br>4.Sodiqova Sh.B. Ilmiy ish asoslari. – Toshkent: Actual Print, 2016. – 114 b.<br>5.Yusupova Sh.B. Ilmiy izlanish asoslari. – Toshkent: O‘zMU, 2016. – 115 b.<br>6.Ruzavin G.I. Metodologiya nauchnogo issledovaniya: Uchebnoe posobie dlya VUZov. – M.: YuNITI-DANA, 2012. – 287 s.<br>7.Жеребило Т.В. Методы исследования в филологии: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим, 2013. – 197 с.<br>Axborot manbalari<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. www.lex.uz.<br>9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 264.<br>10. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 192 b.<br>11. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. Toshkent, 2008. – 89 b.<br>12. Ruzavin G.I. Metodologiya nauchnogo issledovaniya: Uchebnoe posobie dlya VUZov. – M.: YuNITI-DANA, 2012. – 287 s.<br>13. Saifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov G. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: Yangi avlod, 2004. – 200 s.<br>14. Sodiqova Sh.B. Ilmiy ish asoslari. – Toshkent: Actual Print, 2016. – 114 b.<br>15. Yusupova Sh.B. Ilmiy izlanish asoslari. – Toshkent: O‘zMU, 2016. – 115 b.<br>**Axborot manbalari**<br>16. http://www.ziyonet.uz<br>17. http://ziyouz.uz<br>18. http://www.pedagog.uz<br>19. http://www.edu.uz<br>20. http://www. philology. ru<br>21. http://www. slovari. ru<br>22. http://www.wikipedia.org.<br>23. http://www.cambridge.org.<br>24. http://www.tandfonline.com.<br>25. http://www.encyclopedia.com.<br>26. http://www.newworldencylopedia.org. |